INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA MAXSUS PEDAGOGIKANING O'RNI

Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi v.b dotsenti
+998977416888 shohsanammatupaeva@gmail.com
Norkamolova Sarvinoz Baxriddinovna
Safarova Manzura Shermatovna
Madartov Ro'zi Sheraliyevich
Maxmudov Mirkamol Anvarovich
Talaba, CHDPU, Pedagogika fakulteti, Chirchiq, O'zbekiston
mirkamolmahmudov05@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim tizimida maxsus pedagogikaning o'rni, uning asosiy vazifalari va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashning zamonaviy metodlari, individual yondashuv, korreksion-pedagogik yordam va oila bilan hamkorlik masalalari tahlil qilingan. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda maxsus pedagogikaning roli ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maxsus pedagogika, alohida ehtiyojli bolalar, individual yondashuv, korreksion ishlar, ta'lim tizimi, pedagogik metodlar, ijtimoiy moslashuv

Аннотация: В данной статье рассматривается роль специальной педагогики в системе инклюзивного образования, её основные задачи и значение. Также анализируются современные методы работы с детьми с особыми образовательными потребностями, индивидуальный подход, коррекционно-педагогическая помощь и сотрудничество с семьёй. Роль специальной педагогики в развитии инклюзивного образования раскрывается на научной основе.

Ключевые слова: инклюзивное образование, специальная педагогика, дети с особыми потребностями, индивидуальный подход, коррекционная работа, образовательная система, педагогические методы, социальная адаптация

Annotation: This article examines the role of special pedagogy in the system of inclusive education, its main tasks and significance. It also analyzes modern methods of working with children with special educational needs, individual approach, correctional-pedagogical support, and cooperation with families. The role of special pedagogy in the development of inclusive education is revealed on a scientific basis.

Keywords: inclusive education, special pedagogy, children with special needs, individual approach, correctional work, education system, pedagogical methods, social adaptation

Kirish

Jahon ta'limi amaliyotida ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. BMT ning ta'lim sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lim g'oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. YUNESKOning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan dasturlari alohida ta'lim extiyoji bo'lgan bolalar va kattalar uchun xavfsiz va qulay ta'limni ta'minlashga qaratilgan me'yorlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni modernizatsiyalashga yo'naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon

deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta'limning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta'minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me'yorlari ishlab chiqilgan. "Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish maqsadida ta'lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog'lomlashtiruvchi sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash" kabi muhim vazifalar belgilandi. Boshlang'ich ta'limda o'qitish sifatini yaxshilash, o'quvchilarning imkoniyatlariga mos, davlat ta'lim standartlari me'yorlari inobatga olingan o'quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat institutlari hamkorligini kuchaytirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ijtimoiy-pedagogik masalalarni hal etishda ta'lim, sog'liqni saqlash va mahalla tashkilotlarining imkoniyati cheklangan bolalarni sifatli ta'lim xizmatlari bilan ta'minlash borasidagi o'zaro manfaatli hamkorligi talab etiladi. Bu esa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metodik mahorat, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning klasterli yondashuvlari, tashkiliy omillari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, inklyuziv sinflarda darslarni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 29 apreldagi PF5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ–4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi qarori, Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga ega nashrlar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23- sentyabr.O'RQ-637-son[1], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va boshьia xujjatlarda kadrlar masalasi, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta'minlash vazifalari belgilab berilgan. Sanab o'tilgan vazifalarni bajarishda ushbu darslik tayanch manbaa sifatida xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir[2]. Shuningdek, inkluziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

[1] O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23- sentyabr.O'RQ-637-son

[2] Axmedova, D.R. (2022). "Zamonaviy maxsus ta'limda AKT vositalarining o'rni." Pedagogik innovatsiyalar jurnali, №4, 45–52.

Natijalar

Inklyuziv ta’lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o‘quvchilarni sog‘lom o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qitishni anglatadi. Inklyuziv ta’lim bir qator muhim tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Jumladan,

–inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog‘liq emasligi prinsipi;

–har bir shaxsning his qilish va o‘ylash layoqatiga egaligi prinsipi;

–har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;

–har bir shaxsning bir-biriga kerakliligi prinsipi;

–shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi;

–har bir o‘quvchining o‘z tengdoshlarining qo‘llab-quvvatlovi va do‘stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi;

–turli-tumanlik o‘quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta’minlashi zarurligi prinsipi kabilar.

Inklyuziv ta’limning maqsadi - alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta’lim berishni ta’minlashdan iborat . Inklyuziv ta’limning vazifalari quyidagilardan iborat:

–rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

–jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish;

–ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

–barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiy o‘rta, kasb-hunar va oliy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

–o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

–alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta’lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya metod va vositalarini qo‘llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologikpedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Inklyuziv ta’lim jarayonida alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan o‘quvchilar sog‘lom bolalar bilan birga bir maktabda, sinfda o‘qitiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar maktabga qadam qo‘ygan kunlaridan boshlab alohida qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladilar. Bunday qo‘llab-quvvatlash ularning butun hayotlari davomida zarur hisoblanadi. Shuning uchun ham maktab ta’limining dastlabki bo‘g‘inlaridan boshlab, bunday o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish talab etiladi.

Muhokama

Inklyuziv ta’limda maxsus pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri — differensial va individual yondashuvni ta’minlashdir. Har bir bolaning qobiliyati, ehtiyoji va rivojlanish darajasiga qarab ta’lim berish metodlari tanlanadi. Shu bilan birga, maxsus pedagogika o‘qituvchilarga

korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etishda yordam beradi. Masalan, nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan logopedik mashg‘ulotlar o‘tkazish yoki eshitishida muammo bo‘lgan o‘quvchilar uchun maxsus vositalardan foydalanish shular jumlasidandir. Bundan tashqari, maxsus pedagogika inklyuziv ta’limda ijtimoiy moslashuv jarayonini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Alohida ehtiyojli bolalar tengdoshlar bilan birga o‘qish orqali muloqot qilish, jamoada ishlash va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning kelajakda mustaqil hayot kechirishiga zamin yaratadi.

Inklyuziv ta’lim tizimida maxsus pedagogika asosiy tayanch yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. U nafaqat alohida ehtiyojli bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlaydi, balki jamiyatda tenglik, bag‘rikenglik va insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa

Inklyuziv ta’lim tizimida maxsus pedagogika o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ularni samarali qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maxsus pedagogik yondashuvlar o‘quv jarayonini individuallashtirish, pedagogik strategiyalarni moslashtirish va o‘quvchilarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini rag‘batlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy maxsus pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalarni inklyuziv ta’lim tizimiga integratsiya qilish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, pedagogik jarayonni optimallashtiradi va o‘quvchilarning inklyuziv muhitga moslashuvini ta’minlaydi.

Natijalar shuni tasdiqladiki, maxsus pedagogika inklyuziv ta’lim tizimining strategik asosini tashkil etadi va ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda o‘quvchilarning individual rivojlanishini maksimal darajada rag‘batlantirish imkonini beradi. Shu sababli, inklyuziv ta’lim tizimida maxsus pedagogikaning rolini kuchaytirish va uning metodologik asoslarini tizimli qo‘llash ta’limning samaradorligini oshirishda dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga ega nashrlar 1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23- sentyabr.O‘RQ-637-son https://lex.uz/docs/5013007
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni,2008 yil 7-yanvar O‘RQ-139-son https://www.lex.uz/acts/1297315
3. O‘zbekiston Respublikasining “Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonuni 2016 yil 26 dekabrdagi PQ-415-son https://www.lex.uz/docs/3083192
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. https://lex.uz/docs/3107036
5. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli Farmoni. https://www.lex.uz/acts/3436192
6. Karimova, V.A. (2021). Maxsus pedagogika asoslari. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti.

7. Axmedova, D.R. (2022). “Zamonaviy maxsus ta’limda AKT vositalarining o‘rni.” Pedagogik innovatsiyalar jurnali, №4, 45–52.
8. Norqulova, M. (2023). “Inklyuziv ta’limda multisensorli metodlar qo‘llanilishi.” Maxsus pedagogika va psixologiya, №2, 30–36.
9. Tashkent State Pedagogical University. (2022). Inklyuziv ta’lim metodik qo‘llanmasi. Toshkent: TSPU nashriyoti.

References:

1. Law of the Republic of Uzbekistan “On Education”. September 23, 2020, No. O‘RQ 637.https://lex.uz/docs/5013007
2. Law of the Republic of Uzbekistan “On Guarantees of Children’s Rights”. January 7, 2008, No. O‘RQ-139. https://www.lex.uz/acts/1297315
3. Law of the Republic of Uzbekistan “On Social Services for the Elderly, Persons with Disabilities and Other Needy Groups”. December 26, 2016, No. PQ-415. https://www.lex.uz/docs/3083192
4. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On the Strategy of Actions for Further Development of the Republic of Uzbekistan”. February 7, 2017, No. PF-4947. https://lex.uz/docs/3107036
5. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On Measures for Radical Improvement of the State Support System for Persons with Disabilities”. December 1, 2017, No. PF-5270. https://www.lex.uz/acts/3436192
6. Karimova, V.A. (2021). Fundamentals of Special Pedagogy. Tashkent: Uzbekistan Pedagogical Publishing.
7. Axmedova, D.R. (2022). “The Role of ICT Tools in Modern Special Education.” Pedagogical Innovations Journal, №4, 45–52.
8. Norqulova, M. (2023). “Application of Multisensory Methods in Inclusive Education.” Special Pedagogy and Psychology, №2, 30–36.
9. Tashkent State Pedagogical University. (2022). Methodological Guide on Inclusive Education. Tashkent: TSPU Publishing.